

Date: 7th October-2025

MAVSUMIY ALLERGIYALAR BILAN OG'RIGAN BOLALARNING HAYOT
SIFATIGA TA'SIRI

Muallif: **Xamidova Muhabbat Obidovna**

Muassasa: Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti



Kirish: So'nggi yillarda pediatriya amaliyotida bolalar orasida allergik kasalliklarning, xususan, mavsumiy shakllarning ko'payishi kuzatilmoqda. Mavsumiy allergiyalar, asosan, o'simlik changlariga yoki tashqi muhitdagi allergenlarga organizmning ortiqcha sezuvchanligi natijasida vujudga keladi. Ushbu kasalliklar yilning ma'lum fasllarida, ayniqsa bahor va yoz oylarida kuchayadi. Mavsumiy allergiyalar bolaning nafaqat jismoniy salomatligiga, balki ruhiy holatiga, o'qishdagi faolligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Allergik simptomlar – burun bitishi, aksirish, yo'tal, ko'z qichishishi, uyqusizlik kabi belgilar bolaning kunlik faoliyatini chegaralaydi, bu esa hayot sifatining pasayishiga olib keladi.

Maqsad: Mavsumiy allergiyaga chalingan bolalarning hayot sifatiga kasallikning ta'sir darajasini baholash va ularning psixologik hamda ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini aniqlash.

Materiallar va usullar: Tadqiqotda mavsumiy allergik rinit, kon'yunktivit yoki bronxial astma tashxisi qo'yilgan 7–15 yoshli bolalar ishtirok etdi. Bolalar va ularning ota-onalari bilan suhbat o'tkazildi. Hayot sifati "bolalar uchun hayot sifati indeksi" (PedsQL) mezonlariga muvofiq baholandi. So'rovnoma bolaning jismoniy faolligi, o'qishdagi faol ishtiroki, uyqu sifati, ijtimoiy aloqalari va hissiy holati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy usulda qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi.

Natijalar va muhokama: Olingan natijalarga ko'ra, mavsumiy allergiyalar bilan og'rigan bolalarda hayot sifati bir necha yo'nalishda pasaygani aniqlangan. Burun bitishi va nafas olishdagi qiyinchilik ularning uyqu sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, bu esa kun davomida charchoqlik va diqqatning pasayishiga olib kelgan. Shuningdek, maktabdagi ishtirok va o'qish samaradorligining kamayishi, darslarga diqqatni jamlay olmaslik holatlari kuzatilgan. Ba'zi bolalarda o'zini past baholash, jamoaviy o'yinlarda ishtirok etishdan chekinish, hissiy beqarorlik belgilari qayd etilgan. Mavsumiy allergiya davrida bola va ota-onalar o'rtasida psixologik tanglik ham kuzatilgan, bu esa oilaviy muhitga ham ta'sir etgan.

Xulosa: Mavsumiy allergiyalar bolalarda hayot sifatining pasayishiga olib keluvchi muhim omil hisoblanadi. Ular bolaning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Shuning uchun allergik kasalliklarni erta aniqlash, individual davolash va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir. Ota-onalar va pedagoglar o'rtasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bolani allergenlardan himoyalash, parhezga rioya qilish, gigiyena va immunitetni mustahkamlash bo'yicha muntazam tavsiyalar berish zarur.

Kalit so'zlar: mavsumiy allergiya, bola, hayot sifati, allergik rinit, psixologik holat, profilaktika.

Date: 7th October-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizova D.A., “Bolalarda allergik kasalliklarning klinik xususiyatlari”, Pediatriya jurnali, 2021.
2. Karimova N.S., “Allergik rinit bilan og‘rigan bolalarda hayot sifatini baholash”, Tibbiyot amaliyoti yangiliklari, 2022.
3. World Allergy Organization. Allergic Diseases in Children: Clinical Guidelines, 2023.
4. B. Johansson et al. Seasonal Allergic Rhinitis in Children: Quality of Life and Management Strategies, 2020.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

